

Toshkent shahrida kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2024- yil uchun

- I. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni
- II. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o'rnlari soni
- III. Umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
- IV. Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari
- V. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar
- VI. Sanoat
- VII. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- VIII. Qurilish
- IX. Xizmatlar
- X. Savdo faoliyati
- XI. Ovqatlanish bilan ta'minlash
- XII. Innovatsiya


I. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni

(2025- yilning 1- yanvar holatiga)

2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 84,5 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining eng ko'pi savdo sohasida 30,3 mingta (jamiga nisbatan 35,9 %), sanoat tarmoqlarida 10,5 mingta (12,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 0,5 mingta (0,7 %), qurilishda 6,4 mingta (7,6 %), yashash va ovqatlanishda 5,6 mingta (6,7 %), tashish va saqlashda 3,8 mingta (4,6 %) qayd etilgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (2025- yilning 1- yanvar holatiga)





Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy mehnat ko'rsatkichlari

2024- yilda Toshkent shahar bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni 401 314 tani tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni 33 464 tani tashkil etgan.

Tumanlarlar bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar sonining eng ko'pi M.Ulug'bek (45 493 ta), Yunusobod (45 406 ta), Chilonzor (42 984 ta), Mirobod (41 218 ta), Yakkasaroy (40 809 ta) va Yashnobod (38 129 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.

2024- yilda Toshkent shahar bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayol xodimlar soni 112 869 tani tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayol xodimlar soni 6 329 tani tashkil etgan.

Tumanlarlar bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayollar sonining eng ko'pi Mirobod 14 415 ta, Chilonzor 13 661 ta, Uchtepa (12 248 ta), Yakkasaroy (12 100 ta), Yangihayot (11 537 ta) va Sergeli (10 629 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.

2024-yilda iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar sonining eng ko'pi savdoda (94 017 nafar), sanoatda (87 640 nafar), boshqa turdag'i xizmatlar (72 428 nafar), qurilishda (51 839 nafar), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (33 852 nafar) va axborot va aloqada (23 757 nafar) ga to'g'ri kelgan.

2024- yilda Toshkent shahar bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 25 933,4 mlrd so'mni tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 10 253,4 mlrd so'mni tashkil etgan.

Tumanlar bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmining eng ko'pi Yunusobod 8 040,4 mlrd so'm, Mirobod 3 049,0 mlrd so'm, M.Ulug'bek 2 863,8 mlrd so'm, Yakkasaroy 2 502,4 mlrd so'm, Yashnobod 2 064,9 mlrd so'm, Chilonzor 1 686,3 mlrd so'm, va Shayhontoxur 1 526,4 mlrd so'm tumanlariga to'g'ri kelgan.

Toshkent shahri bo'yicha 2024- yilda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 6 469,8 mlrd so'mni tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 2 712,4 mlrd so'mni tashkil etgan.

Tumanlar bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmining eng ko'pi Yunusobod 2 176,9 mlrd so'm, Mirobod 739,5 mlrd so'm, M.Ulug'bek 685,2 mlrd so'm, Yakkasaroy 613,3 mlrd so'm, Yashnobod 513,8 mlrd so'm, Chilonzor 417,3 mlrd so'm, va Olmazor 381,6 mlrd so'm tumanlariga to'g'ri kelgan.

2024- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarning eng ko'p hajmi boshqa turdag'i xizmatlar (9 470,9 mlrd so'm), sanoatda (3 559,1 mlrd so'm), axborot va aloqa (3 451,8



mlrd so'm), savdoda (3 427,8 mlrd so'm), qurilishda (3 166,0 mlrd so'm) hamda tashish va saqlash (1 147,1 mlrd so'm)ga to'g'ri kelgan.

II. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o'rirlari soni

2024- yil hisobot yilida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o'rirlari soni 146 925 tani tashkil etdi.

Tumanlar bo'yicha yangi ochilgan ish o'rirlari sonining eng ko'pi Mirobod (18 748 ta), Yunusobod (18 147 ta), M.Ulug'bek (17 847 ta), Yakkasaroy (15 114 ta), Yashnobod (14 408 ta), Chilonzor (13 746 ta) va Shayhontoxur (12 397 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.

Mehnat daftarchalari mayjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 2024- yilda 423,0 ming kishini tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida mehnat daftarchalari mayjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 32,1 ming kishini tashkil etgan.

Tashqi o'rindoshlarni yillik o'rtacha soni 2024- yilda 22,3 ming kishi. Ma'lumot uchun: 2023- yil hisobot yilida tashqi o'rindoshlarni yillik o'rtacha soni 24,0 ming kishini tashkil etgan.

Fuqarolik huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 2024- yilda 16,3 ming kishini tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida fuqarolik huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 16,2 ming kishini tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni (birlikda)

	Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda		Ulushi, % da
	2023- yil.	2024- yil.	
Toshkent sh.	24 110	25 628	100,0
Uchtepa tumani	1494	1522	5,9
Bektemir tumani	546	626	2,5
Yunusobod tumani	2852	3154	12,3
Mirzo-Ulug'bek tumani	3566	3744	14,6
Mirobod tumani	2690	2798	10,9
Shayhontoxur tumani	1998	2042	8,0
Olmazor tumani	1756	1854	7,2
Sirg'ali tumani	1312	1408	5,5
Yakkasaroy tumani	2336	2528	9,9
Yashnobod tumani	2292	2500	9,8
Yangihayot tumani	606	778	3,0
Chilonzor tumani	2662	2674	10,4

2024- yilda Toshkent shahar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 25 628 tani tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 1 518 taga ko'p demakdir. Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning, jami faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonidagi ulushi 30,3 % ni tashkil etgan.



Tumanlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar sonining eng ko'pi M.Ulug'bek 3 744 ta (14,6 %), Yunusobod 3 154 ta (12,3 %), Mirobod 2 798 ta (10,9 %), Chilonzor 2 674 ta (10,4 %) va Yakkasaroy 2 528 ta (9,9 %) to'g'ri kelgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarda o'ttacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mazkur korxonada mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni 48 791 kishini tashkil qildi. Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 2 234,5 mlrd so'mga to'g'ri kelgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy mehnat ko'rsatkichlari

	O'Ichov birligi	2023- yil	2024- yil
O'rta ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mazkur korxonada mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni	kishi	48 660	48 791
Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar	mlrd so'm	1 858,1	2 234,5
Hisobot yili oxiriga mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni shu jumladan oliv ma'lumotli	kishi	46 325	45 892
Hisobot yilida yangi ochilgan ish o'rnlari soni	birlik	20 299	21 867
Hisobot yilida qisqartirilgan ish o'rnlari soni	birlik	14 150	18 076
Hisobot yilida mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni	kishi	8 362	9 802
Tashqi o'rindoshlarning yillik o'rtacha soni	kishi	48 701	48 449
Fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha soni	kishi	4 314	4 265
Fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha soni	kishi	2 608	2 222

III.Umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum 369 870,1 mlrd so'mni tashkil etgan.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum miqdori va ulushining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'pi savdo sohasida 190 413,5 mlrd so'm (51,5 %), sanoat tarmoqlarida 57 736,2 mlrd so'm (15,6 %), qurilishda 42 321,2 mlrd so'm (11,4 %), axborot va aloqada 29 872,0 mlrd so'm (8,1 %), boshqalar 26 471,2 mlrd so'm (7,2 %), tashish va saqlashda 11 526,5 mlrd so'm (3,1 %), yashash va ovqatlanishda 9 092,3 mlrd so'm (2,5 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 054,0 mlrd so'm (0,5 %) va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidida 383,0 mlrd so'm (0,1 %), ni tashkil etgan.

Tumanlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning eng ko'pi Mirobod (53 592,1 mlrd so'm), Yunusobod (42 938,6 mlrd so'm), Yakkasaroy (39 709,6 mlrd so'm), Yashnobod (35 776,3 mlrd so'm) va Chilonzor (34 594,3 mlrd so'm) tumanlariga to'g'ri kelgan.



2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdori 16 976,5 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan moliyaviy natijani 543,5 mlrd so'mga kamayishiga olib keldi.

Shuningdek, 2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning sof foydasi (zarar) miqdori 12 602,5 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan sof foydani 1 085,0 mlrd so'mga kamayishiga olib keldi.

Tumanlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdorining eng ko'pi Yakkasaroy (3 818,2 mlrd so'm), M.Ulug'bek (2 502,6 mlrd so'm), Yunusobod (2 146,4 mlrd so'm), Mirobod (1 686,9 mlrd so'm) va Yashnobod (1 665,5) tumanlariga to'g'ri kelgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning foya solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdorining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'pi savdo sohasi – 8 955,9 mlrd so'm (52,8 %), boshqa turdag'i xizmatlar – 3 982,7 mlrd so'm (23,5 %), axborot va aloqa – 3 782,2 mlrd so'm (22,3 %) va sanoat – 107,3 mlrd so'm (1,2 %), tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning foya solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) va sof foydasi (zarar) miqdori (mlrd so'm)

	Foya solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)		Sof foyda (zarar)	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Jami	17 520,0	16 976,5	13 687,5	12 602,5
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	-285,7	-2,2	-296,3	-12,1
Sanoat	1 433,8	107,3	735,8	-583,9
Qurilish	1 320,1	-408,1	947,4	-796,5
Savdo	7 305,6	8 955,9	5 739,3	7 136,9
Tashish va saqlash	-756,3	91,7	-862,9	-40,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	448,5	269,0	286,4	148,6
Axborot va aloqa	4 387,2	3 782,2	4 177,1	3 481,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	146,8	198,0	120,1	176,8
Boshqa turdag'i xizmatlar	3 520,0	3 982,7	2 840,6	3 091,8

IV.Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari

2024- yilning 1- yanvar holatiga kichik korxona va mikrofirmalarning debitor qarzdorligi 96 406,0 mlrd so'm, kreditor qarzdorligi 220 798,9 mlrd so'mga yetgan.

Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha bahosi 74 913,4 mlrd so'm, asosiy vositalarning eskirish summasi 24 912,1 mlrd so'mni tashkil etgan.



Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari mlrd so'mda

	2023- yil	2024- yil
Yil oxiriga debitorlik qarz	72 901,8	96 406,0
Yil oxiriga kreditorlik qarz	113 394,6	127 734,1
Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha bahosi	58 315,1	74 913,4
Yil oxiriga asosiy vositalarning eskirish summasi	19 367,8	24 912,1
Yil oxiriga nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati bo'yicha bahosi	1 869,6	2 314,9
Yil oxiriga nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi summasi	741,4	725,6
Tugallanmagan qurilishlar (o'rnatilmagan uskunalarni qo'shgan holda)	35 574,1	51 391,3

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum 25 660,7 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 5 069,0 mlrd so'mga ko'p demakdir. 2024- yilda rahbari ayol kishi bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning ulushi jami sof tushumning 6,9 % ini tashkil etgan.

Tumanlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning eng ko'pi Yakkasaroy 3 604,1 mlrd so'm, Mirobod 3 399,3 mlrd so'm, M.Ulug'bek 3 341,2 mlrd so'm, Yunusobod 3 215,0 mlrd so'm, Yashnobod 2 967,7 mlrd so'm, Shayhontoxur 2 239,3 mlrd so'm, shuningdek, Olmazor 1 489,4 mlrd so'm tumanlariga to'g'ri kelgan.

**Hududlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot
(tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum hajmi va jamidagi ulushi**

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, % da
Toshkent shahar	25 660,7	100,0
Uchtepa	937,8	3,7
Bektemir	746,3	2,9
Yunusobod	3 215,0	12,5
M.Ulug'bek	3 341,2	13,0
Mirobod	3 399,3	13,3
Shayhontoxur	2 239,3	8,7
Olmazor	1 489,4	5,8
Sergeli	1 363,9	5,3
Yakkasaroy	3 604,1	14,0
Yashnobod	2 967,7	11,6
Yangihayot	890,1	3,5
Chilonzor	1 466,5	5,7



2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi (zarari) miqdori 1 976,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2024- yilda rahbari ayol kishi bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning sof foydasi (zarar) miqdori 1 485,7 mlrd so'mni tashkil etgan.

**Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari
(mlrd so'mda)**

	2023- yil	2024- yil
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum	20 591,7	25 660,7
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar tannarxi	15 285,8	18 284,5
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi (zarari)	1 310,1	1 976,3
Sof foyda (zarar (-))	964,4	1 485,7
Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha bahosi	5 685,8	6 825,1
Yil oxiriga asosiy vositalarning eskirish summasi	1 747,7	1 881,5

V.Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 31 746,5 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan investitsiyalarni 14 150,1 mlrd so'mga oshishini ta'minladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori va ulushining eng ko'pi, qurilishda sohasida 12 957,3 mlrd so'm (40,8 %), boshqalar 6 848,5 mlrd so'm (21,6 %), sanoat tarmoqlarida 4 458,2 mlrd so'm (14,0 %), savdo 2 949,6 mlrd so'm (9,3 %), axborot va aloqada 1 989,3 mlrd so'm (6,3 %) tashish va saqlashda 958,2 mlrd so'm (3,0 %), yashash va ovqatlanishda 956,8 mlrd so'm (3,0 %), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 609,5 mlrd so'm (1,9 %) va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 19,1 mlrd so'm (0,1 %)ni tashkil etgan.

2024- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi (mlrd so'mda) .

	Hajmi, mlrd so'm
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19,1
Sanoat	4 458,2
Qurilish	12 957,3
Savdo	2 949,6
Tashish va saqlash	958,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	956,8
Axborot va aloqa	1 989,3
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	609,5
Boshqa turdag'i xizmatlar	6848,5



2024- yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanishida, turar joylar 8 305,4 mlrd so'm, noturar joylar 7 044,2 mlrd so'm, inshoatlar 1 375,8 mlrd so'm, mashina uskunalar transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari qiymati 10 385,4 mlrd so'm va boshqa xarajatlar 4 635,6 mlrd so'mni tashkil etdi.

Tumanlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining eng ko'pi Yunusobod (5 229,3 mlrd so'm), Yakkasaroy (4 530,4 mlrd so'm), Mirobod (3 963,3 mlrd so'm), M.Ulug'bek (3 610,4 mlrd so'm), Yashnobod (3 083,7 mlrd so'm) va Chilonzor (2 730,8 mlrd so'm) tumanlariga to'g'ri kelgan.

**Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy kapitalga kiritilgan
investitsiyalari hajmi va yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanishi
(2024- yilda, mlrd so'mda).**

	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya	shu jumladan:				
		turar joylar	noturar joylar	Inshootlar	mashina uskunalar transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari qiymati	boshqa xarajatlar
Toshkent shahar	31 746,5	8 305,4	7 044,2	1 375,8	10 385,4	4 635,6
Uchtepa	1 824,9	109,9	1 134,5	75,9	221,2	283,4
Bektemir	267,8	0,0	4,2	0,0	259,5	4,1
Yunusobod	5 229,3	1 319,6	1 848,4	12,9	1 363,6	684,8
M.Ulug'bek	3 610,4	2 190,8	339,7	108,3	533,2	438,4
Mirobod	3 963,3	1 486,3	413,7	276,4	1 509,8	277,1
Shayhontoxur	1 572,9	231,0	653,3	0,0	538,6	149,9
Olmazor	1 311,5	192,7	189,9	58,8	763,8	106,3
Sergeli	1 830,3	95,9	736,9	167,4	808,1	22,0
Yakkasaroy	4 530,4	1 498,3	1 069,1	2,2	1 318,6	642,2
Yashnobod	3 083,7	469,1	153,9	293,0	1 896,0	271,7
Yangihayot	1 791,2	620,0	472,7	0,3	569,9	128,3
Chilonzor	2 730,8	91,8	27,9	380,6	603,1	1 627,4

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi 2 435,3 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hajmiga nisbatan 648,3 mlrd so'mga ko'paydi.



Tumanlar bo'yicha 2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi eng ko'pi, Yunusobod 1 831,5 mlrd so'm, Olmazor 127,9 mlrd so'm, Mirobod 93,0 mlrd so'm, Yakkasaroy 92,3 mlrd so'm, Chilonzor 67,2 mlrd so'm, M.Ulug'bek 58,2 mlrd so'm, Shayhontoxur 53,1 mlrd. so'm, Yashnobod 39,8 mlrd. so'm, Uchtepa 32,9 mlrd. so'm, Yangihayot 19,4 mlrd. so'm, Sergeli 12,8 mlrd. so'm va Bektemir 7,2 mlrd. so'm tumanlarga qayd etilgan.

VI. Sanoat

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 57 588,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu esa 2023- yilga nisbatan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotini 12 549,0 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi eng ko'pi, Olmazor tumanida 8 618,6 mlrd so'm, Chilonzor tumanida 6 410,9 mlrd so'm, Yashnobod tumanida 6 267,6 mlrd so'm, Sergeli tumanida 5 985,9 mlrd so'm, Bektemir tumanida 5 352,1 mlrd so'm, M.Ulug'bek tumanida 4 608,1 mlrd so'm, Yunusobod tumanida 4 104,5 mlrd so'mni tashkil etgan.

Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti (ishlar, xizmatlar) hajmi (QQS va aksizsiz) (mlrd so'mda)

	Jami		Rahbari ayol kishi bo'lgan	
	Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi mlrd so'mda		Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi mlrd so'mda	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Toshkent shahri	45 039,9	57 588,9	2 477,9	3 023,0
Uchtepa	3375,8	3 369,7	164,0	80,7
Bektemir	3912,0	5 352,1	245,6	365,0
Yunusobod	2784,2	4 104,5	120,5	130,1
M.Ulug'bek	3280,1	4 608,1	231,4	503,1
Mirobod	2668,9	3 591,8	73,7	98,5
Shayhontoxur	1976,5	2 887,4	74,6	65,0
Olmazor	6699,3	8 618,6	256,4	367,0
Sergeli	4099,4	5 985,9	138,0	416,5
Yakkasaroy	4021,7	3 599,5	397,9	270,6
Yashnobod	4920,3	6 267,6	264,3	332,3
Yangihayot	2220,3	2 792,9	324,3	205,1
Chilonzor	5081,6	6 410,9	187,1	189,0

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 3 023,0 mlrd so'mni tashkil etgan.

2024- yilda rahbari ayol kishi bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi, jami kichik korxona va mikrofirmalar ishlab chiqargan sanoat mahsulotining 5,2 % ini tashkil etdi. Hududlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmining eng katta ulushi Toshkent shahri (3 023,0 mlrd so'm) ga to'g'ri keldi.



VII. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi 303,6 mlrd so'mni tashkil etgan.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi (2024- yilda).

	Hajmi, mlrd so'mda
Jami	303,6
O'rmonchilik va yog'och tayyorlash	6,6
Baliq ovlash va akvakultura	10,2
Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish	286,8

Tumanlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmining eng ko'pi Yunusobod (64,6 mlrd so'm), Uchtepa (58,1 mlrd so'm), Yangihayot (42,1 mlrd so'm), M.Ulug'bek (33,7 mlrd so'm) va Mirobod (23,5) tumanlariga to'g'ri kelgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi 5,5 mlrd so'mni tashkil etgan.


Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatishda 5,5 mlrd so'mni tashkil etgan.

VIII. Qurilish

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 31 652,9 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan qurilish ishlarini 6 900,6 mlrd so'mga oshishini ta'minladi.

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining taqsimlanishi, yangi qurilish ishlarining rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta qurollantirishda 15 602,2 mlrd so'm, kapital ta'mirlashda 2 811,3 mlrd so'm, joriy ta'mirlashda 1 805,5 mlrd so'm boshqa pudrat ishlarida 11 433,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining taqsimlanishi
(2024- yilda, mlrd so'm)**



Tumanlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Yakkasaroy (4 907,9 mlrd so'm), Mirobod (4 301,8 mlrd so'm), Yashnobod (3 365,8 mlrd so'm), M.Ulug'bek (3 167,9 mlrd so'm) va Yunusobod (3 126,6 mlrd so'm) tumanlariga qayd etilgan.

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hajmi(QQSsiz) (mlrd so'mda)

	Jami		Shundan ayollar rahbarligidagi korxonalarda	
	Amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi		Amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Toshkent shahri	24 752,3	31 652,9	813,0	1 299,0
Uchtepa	727,1	1 620,3	13,0	6,9
Bektemir	698,6	1 089,0	33,6	33,1
Yunusobod	3 279,2	3 126,6	97,7	22,9
M.Ulug'bek	2 595,9	3 167,9	111,5	122,0
Mirobod	3 517,4	4 301,8	82,7	216,9
Shayhontoxur	1 496,8	1 998,8	19,2	61,8
Olmazor	1 429,5	2 161,3	44,0	15,7
Sergeli	1 562,0	1 860,5	22,6	45,2
Yakkasaroy	3 374,0	4 907,9	107,1	51,4
Yashnobod	2 625,0	3 365,8	180,3	331,1
Yangihayot	1 238,4	1 624,0	35,4	351,4
Chilonzor	2 208,5	2 429,0	65,9	40,6

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 299,0 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan bajarilgan qurilish ishlarini 486,0 mlrd so'mga oshganini ko'rsatadi.



2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, kichik korxona va mikrofirmalar jami qurilish ishlaringin 4,1 % ini tashkil etdi.

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarda tumanlar bo'yicha eng ko'p amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi Yangihayot (351,4 mlrd so'm), Yashnobod (331,4 mlrd so'm), Mirobod (216,9 mlrd so'm), M.Ulug'bek (122,0 mlrd so'm) va Shayhontoxur (61,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etilgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmining taqsimlanishi, yangi qurilish ishlaringin rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta qurollantirishda 527,1 mlrd so'm, kapital ta'mirlashda 81,3 mlrd so'm, joriy ta'mirlashda 117,5 mlrd so'm boshqa pudrat ishlarida 573,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

IX.Xizmatlar

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi 85 101,8 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023 - yilga nisbatan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarni 22 419,6 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

Tumanlar bo'yicha ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarning eng ko'pi Mirobod (14 988,3 mlrd so'm), Yakkasaroy (12 580,6 mlrd so'm), Yunusobod (11 472,5 mlrd so'm), M.Ulug'bek (10 586,9 mlrd so'm), Yashnobod (7 668,0 mlrd so'm), Shayhontoxur (6 994,7 mlrd so'm) va Chilonzor (6 648,3 mlrd so'm) tumanlariga qayd etilgan.

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi (mlrd so'mda)

	Jami xizmat		Shundan: ayollar rahbarligida	
	2023- yil	2024- yil	2023-yil	2024-yil
Toshkent shahri	62 682,2	85 101,8	7 707,1	10 453,1
Uchtepa	2 056,1	2 378,2	254,4	322,3
Bektemir	967,9	1 125,7	75,6	121,5
Yunusobod	8 921,3	11 472,5	906,0	1 366,5
M.Ulug'bek	8 700,9	10 586,9	1 608,3	1 664,5
Mirobod	9 849,5	14 988,3	1 398,2	1 968,3
Shayhontoxur	4 727,3	6 994,7	408,5	762,3
Olmazor	4 324,5	5 104,7	263,3	401,0
Sergeli	3 106,8	4 118,0	462,9	456,9
Yakkasaroy	8 922,3	12 580,6	1 072,0	1 421,8
Yashnobod	4 920,2	7 668,0	701,6	1 207,9
Yangihayot	880,3	1 435,9	55,1	95,5
Chilonzor	5 305,1	6 648,3	501,2	664,6



2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi 10 453,1 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarni 2 746,0 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi, kichik korxona va mikrofirmalar jami xizmatlar hajmining 12,3 % ini tashkil etdi.

X.Savdo faoliyati

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi 172 505,3 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan ulgurji savdo tovar aylanmasini 27 692,8 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

Tumanlar bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining eng katta ulushi Mirobod (26 176,3 mlrd so'm) va Yakkasaroy (21 281,4 mlrd so'm) tumanlarga qayd etildi.

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd so'mda)

	Ulgurji savdo		Chakana savdo	
	2023- yil.	2024- yil.	2023- yil.	2024- yil.
Toshkent shahri	144 812,5	172 505,3	37 580,4	50 890,7
Uchtepa	9 674,8	10 078,7	4 163,5	3 912,0
Bektemir	2 873,4	3 742,1	1 156,0	1 460,1
Yunusobod	15 348,5	16 270,9	7 206,0	5 128,1
M.Ulug'bek	12 960,7	14 576,1	2 705,6	4 557,6
Mirobod	24 321,4	26 176,3	2 238,9	8 766,7
Shayhontoxur	10 380,7	13 959,1	4 159,3	5 045,2
Olmazor	14 107,2	15 064,0	2 595,9	2 575,1
Sergeli	10 738,1	11 556,4	3 181,4	3 879,6
Yakkasaroy	15 095,7	21 281,4	4 232,1	3 004,4
Yashnobod	11 108,7	15 750,8	2 477,3	4 517,7
Yangihayot	3 615,9	4 651,1	432,5	1 835,2
Chilonzor	14 587,4	19 398,6	3 032,0	6 209,1

2024-yilda kichik korxona va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 50 890,7 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023-yilga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasini 13 310,3 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

Tumanlar bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasining eng ko'pi Mirobod (8 766,6 mlrd so'm), Chilonzor (6 209,1 mlrd so'm), Yunusobod (5 128,1 mlrd so'm), Shayhontoxur (5 045,2 mlrd

so'm), M.Ulug'bek (4 557,6 mlrd so'm), Yashnobod (4 517,7 mlrd so'm) va Uchtepa (3 912,0 mlrd so'm) tumanlarga qayd etilgan.

XI.Ovqatlanish bilan ta'minlash

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning ovqatlanish bilan ta'minlash bo'yicha tovar aylanmasi hajmi 7 759,7 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan ovqatlanish bilan ta'minlash tovar aylanmasini 2 307,6 mlrd so'mga ko'payishiga olib keldi.

Tumanlar bo'yicha ovqatlanish bilan ta'minlash tovar aylanmasining eng ko'pi M.Ulug'bek (1 178,1 mlrd so'm), Yakkasaroy (1 141,4 mlrd so'm), Yunusobod (1 123,6 mlrd so'm), Shayhontoxur (946,7 mlrd so'm), Mirobod (883,4 mlrd so'm), Chilonzor (706,0 mlrd so'm) va Yashnobod (553,5 mlrd so'm) tumanlarga qayd etilgan.

XII.Innovatsiya

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan joriy qilingan innovatsiyalar 783 tani tashkil etgan. Bunda 2023- yilga nisbatan innovatsiyalar soni 123 taga oshgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan amalga oshirilgan innovatsiyalar sonining eng ko'pi, sanoatda 347 ta, savdo sohasida 142 ta, qurilish sohasida 89 ta, boshqa turdag'i xizmatlarda 54 ta, tashish va saqlash sohasida 28 ta, axborot va aloqa sohasida 24 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida 25 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 56 ta va qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 18 tani tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan joriy etilgan innovatsiyalar (2024- yilda).

	Texnologik innovatsiya-lar, birlikda.	marketing innovatsi-yalar, birlikda	tashkiliy innovatsi-yalar, birlikda	innovation tovarlar, ishlar, xizmatlar, hajmi, mlrd so'm	texnologik innovatsiyalarga xarajatlar, mlrd so'm
Jami	604	58	121	1 751,1	372,3
Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	18			24,5	4,3
Sanoat	322	7	18	925,8	249,1
Qurilish	57	26	6	297,4	20,8
Savdo	83	23	36	285,5	44,2
Tashish va saqlash	18		10	15,1	2,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15		10	15,9	1,0
Axborot va aloqa	12	1	11	49,7	0,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	56			28,6	5,4
Boshqa turdag'i xizmatlar	23	1	30	108,6	44,5

Tumanlar bo'yicha joriy etilgan innovatsiyalarning eng ko'pi Yunusoobod (199 ta), Yashnobod (127 ta), Mirobod (104 ta), Bektemir (102 ta), Sergeli (67 ta), M.Ulug'bek (55 ta) hamda Chilonzor (49 ta) tuumanlarida qayd etilgan.



**Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan joriy etilgan innovatsiyalar
(2024-yilda).**

	Texnologik innovatsiyalar, birlikda.	marketing innovatsiyalari, birlikda	tashkiliy innovatsiyalar, birlikda	innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar, hajmi, mlrd so'm	texnologik innovatsiyalarga xarajatlar, mlrd so'm
Toshkent shahri	604	58	121	1 751,1	372,3
Uchtepa	2		1	47,8	2,1
Bektemir	52	20	30	227,2	0,0
Yunusobod	196		3	167,9	39,8
M.Ulug'bek	54		1	63,8	10,9
Mirobod	10	28	66	112,0	36,9
Shayhontoxur	5		1	85,9	11,5
Olmazor	43	2	2	160,5	13,7
Sergeli	56		11	75,6	4,9
Yakkasaroy	11	1	1	559,0	173,7
Yashnobod	116	6	5	142,6	56,2
Yangihayot	40	1	1	33,6	3,6
Chilonzor	19		30	75,2	19,0

2024-yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan joriy qilingan innovatsiyalar 13 tani tashkil etgan. Shuningdek, texnologik innovatsiyalar 7 ta, tashkiliy innovatsiyalar 5 ta, marketing innovatsiyalar 1 tani tashkil etdi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlar bo'yicha
uslubiy tushuntirishlar**

Mikrofirma va kichik korxonalarning faoliyati to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlar quyidagi ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.

1 kb (yillik) "Mikrofirma va kichik korxonaning 2024-yil uchun hisoboti"ni mikrofirma va kichik korxonalar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida tayyorlangan. Tarmoqlar kesimidagi ma'lumotlarni, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar statistik tasniflagichining ro'yxati asosida jamlangan ma'lumotlar bo'yicha tayyorlangan.

Mazkur ma'lumotlar tarkibiga yirik tijorat korxonalari, byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari va banklarning ko'rsatkichlari kiritilmagan.

Foydali havolalar



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar statistik tasniflagichining ro'yxati

Tayyorlash uchun mas'ul:

Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv boshqarmasi

Ijrochi:

B. Holiqov
71 203-80-03 (3533)

Manzil:

Toshkent shahar,
Mirobod tumani,
A.Temur ko'chasi 11-uy